

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RAJABOVA IRINA TAXIROVNA

**O‘ZBEK VA RUS HIKOYACHILIGIDA SYUJET VA KOMPOZITSION
YAXLITLIK SINTEZI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch-2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Table of contents of the abstract of the doctoral dissertation (PhD) in
philology sciences**

Rajabova Irina Taxirovna

О'zbek va rus hikoyachiligida syujet va kompozitsion yaxtitlik sintezi..... 3

Ражабова Ирина Тахировна

Синтез сюжетно-композиционной целостности в русском и узбекском повествовании..... 27

Razhabova Irina Takhirovna

Synthesis of plot-compositional integrity in uzbek and Russian narration.....53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RAJABOVA IRINA TAXIROVNA

**O‘ZBEK VA RUS HIKOYACHILIGIDA SYUJET VA KOMPOZITSION
YAXLITLIK SINTEZI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3553 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fil-ik.urdu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Botirova Shahlo Isamiddinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Gaylieva Ogulay Kurbanmuradovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Djumabaeva Jamila Sharipovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Nukus davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «31» 10 soat 1400 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00, e-mail: www.fil-ik.urdu.uz).

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (300 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «18» 10 da tarqatildi.

(2023 yil «18» 19/10 dagi 14 raqamli reyestr bayonnomasi).



Z.D. Do‘simov,
ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

S.S. Atajanov,
ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kabineti filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)

A.D. O‘razboyev,
ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori
(DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida hikoya poetikasi va uning rivojlanish tendentsiyalari xususida olib borilgan tadqiqotlarning tub mohiyatida janrning o‘zi mutassil o‘zgarishga, rivojlanishga moyilligi bilan ajralib turishini ko‘rishimiz mumkin. Hayotning siqiq va muhim bir qirrasini tasvirlash asnosida inson taqdiri haqida so‘z ochuvchi hikoya strukturasi muayyan evrilishlar global dunyo qiyofasini anglashga imkon beradi. Janriy-kompozitsion yaxlitlik hikoya arxitektonikasida zuhur etilish bosqichlari va omillarini aniqlash, yevropa va rus adabiyotidagi hikoya kontseptsiyasini nazariy-ilmii jihatdan baholash joriy adabiyotshunoslikning muhim masalalari sirasiga kiradi.

Dunyoda globallashuv jarayonining uzviy bir qismi badiiy asarda aks etish prinsiplari va yo‘sinlari hikoya kompozitsiyasida ko‘zga tashlanayotgan shakliy-uslubiy izlanishlar modifikatsiyasi talqin rang-barangligini yuzaga keltirmoqda. Yevropa va rus hikoyachiligidagi sifat o‘zgarishlari poetologik konstruktsiyaga jiddiy ta‘sir o‘tkazmoqda. Novellistik ruhdagi hikoyalarning tub ildizi, hikoyat va uning hikoyadan farqli xususiyatlari antik yunon tarixi va eposining qism va bo‘laklarga bo‘linish xususiyatlarini har tomonlama baholash muhimligini taqozo etmoqda. Endilikda hikoya janrining falsafiy-pisixologik asoslarini, estetik did va ijodkor dunyoqarashida bunyod bo‘lgan xarakterlar individualligini qiyoslab o‘rganish muhimligi ayon bo‘lmoqda. Yevropa va jahon hikoyachiligi maktabida yuzaga kelgan tasvir prinsiplarini chuqur tadqiq qilishni yuzaga chiqarmoqda. Mana shu jihatlarning o‘ziyoq janrning shakliy ustqurma va syujet konstruktsiyasidagi sifat o‘zgarishlarini aniqlashga imkon bermoqda.

Yangi o‘zbek adabiyotining joriy holati va hikoyachilik an‘analari qadim zamonlardan buyon kelayotgani ayni haqiqatdir. O‘zbek va rus hikoyachilik maktabi peshqadam vakillarining adabiy-badiiy aloqalari, sintez va modifikatsion tamoyillar turfaligi muayyan salmoq kasb etmoqda. Ayni shu jihatlarni hisobga olsak masala mohiyati yanada oydinlashadi. Poetik qamrov va ifoda mustaqilligi syujet va kompozitsiyada maromiga yetadi. Uslub va badiiy shakl tadriji yozuvchi kontseptsiyasining mahsuliligi ekanligi ayonlashadi. Zero, “...adabiyot va san‘atga, madaniyatga e‘tibor – bu, avvalo, xalqimizga e‘tibor, kelajagimizga e‘tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q.”¹ Binobarin, joriy davrning o‘zish va o‘zgarishlarini inobatga olib, talqin rang-barangligini aniqlash va undan tayinli xulosalar chiqarish hikoya kriteriysini chamalashga zamin hozirlaydi. O‘zbek va rus hikoyachiligida yuzaga kelgan adabiy ta‘sir va ijodiy o‘ziga xoslik masalasi injodkor fenomenini va tafakkur sarhadlarini anglashga yo‘l ochadi. Natijada, biz tanlagan mavzu qiyosan tadqiq qilinishi asnosida muammo dolzarbligini tayin etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17- fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni, 2017-yil 16-fevraldagi «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim

¹ Мирзиёев Ш. М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдевори // Халқ сўзи. –Тошкент, 2017. – 4 август.

tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF-4958-son Farmoni, 2019-yil 8-oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-son Farmoni, 2017-yil 13-seniyabrdagi «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi PQ-3271-son Qarori, 2018-yil 5-iyundagi «Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3775-son Qarori, 2019-yil 29-oktyabrdagi «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida»gi O‘RQ-576-son Qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tuzishini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Jahon adabiyotshunosligida hikoya janri genezisi va uning shakllanish omillari borasida qadim zamonlardan buyon katta-kichik tadqiqotlar yaratilgan. Arastuning “Poetika” asarida janriy atamaning eposga xos qirralarini aniqlashga qaratilgani fikrimiz yorqin dalilidir. V.G.Belinskiy, A.A.Potebnya, D.N.Ovsyanko-Kulikovskiy, A.G.Grofed, L.S.Vigotskiy, M.M.Baxtinlarning psixoanalitik; V.Shklovskiy, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, Y.N.Tinyanov, B.V.Tomashevskiy, G.O.Vinokur, Klod Levi-Stross, L.S.Vigotskiy, R.Bart, Y.Lotman, D.S.Lixachev, F.Shleyermexer, V.Diltey, M.Xaydegger, G.G.Gadamer muayyan katta-kichik tadqiqotlar olib borishgan.² Ularning nazariy izlanishlarida hikoya janrining estetik qirralarini va syujet yaratish mahoratini Yevropa va Amerika, rus yozuvchilarining ayrim asarlarini o‘rganganligida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, Y.Solijonov, A.Rasulov, B.Nazarov, H.Umurov, H.Karimov, D.To‘rayev, M.Xolbekov, Q.Yo‘ldoshev, D.Quronov, U.Jo‘raqulov, I.Yoqubov, B.Karimov, V.Alimasov³ning ayrim tadqiqotlarida hikoya janri rivojiga u yoki bu darajada

² История русского литературоведения. – М.: 1980; Сакулин П.А. Филология и культурология. – М.: 1990; Боров Ю. Искусство интерпретации и оценки. – М.: 1981; Сент-Бёв Ш. Литературные портреты. Критические очерки. – М.: 1970; Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – М.: 1981; Его же: Введение в структуральный анализ повествовательных текстов // Зарубежная эстетика и теория литературы XIX – XX вв. – М.: 1987; Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. – Ленинград: 1972; Гадамер Г.Г. Актуальность прекрасного. – М.: 1991.

³ Султонов И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986; Султонов И. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010; Қўшжонов М. Ижод масъулияти, – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981; Қўшжонов М. Моҳият ва бадиият. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарк, 2004; Саримсоков Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Шарк, 2004; Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. – Тошкент: Фан, 2008; Солижонов Ў. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси. Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 2002; Солижонов Ў. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. – Тошкент: Алишер

munosabat bildirishgan. Ayni shu olib borilgan ishlarda rus va o'zbek hikoyachiligida syujet va kompozitsion yaxlitlik sintezi muammosi to'laqonli o'rganilgan emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Yangi o'zbek adabiyoti va adabiy tanqid" (2017-2021) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hikoya janri ildizlari va genezisi, badiiy mahorat va ijodkor konsepsiyasi muammosini tadqiq qilishda I.Bunin, A.Chexov, V.Rasputin, I.Turgenov, A.Qahhor, Sh.Xolmirzayev, O'.Umarbekov O'.Hoshimov kabi yozuvchilarning syujet va kompozitsiya yaratishdagi uslubiy-shakliy izlanishlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hikoya janri taraqqiyotida syujet va kompozitsion yaxlitlikning o'ziga xosligini, ijodkor konsepsiyasi va mahorat muammosi o'zbek va rus adabiyotshunosligida yuzaga kelgan ilmiy-nazariy tushunchalar negizida uyg'unlashtirish;

o'zbek va rus hikoyachiligida janriy izlanishlar, yangilanishlarni jahon adabiyotida ro'y berayotgan sifat o'zgarishlarini I.Bunin, A.Chexov, V.Rasputin, I.Turgenov, A.Qahhor, Sh.Xolmirzayev asalari misolida qiyosiy-tipologik tarzda talqin qilish hamda hikoya janrining ifoda xususiyatlarini talqin qilishda dunyo adabiyotining ilg'or an'analari ta'sirida aks etgan badiiy komponentlar tig'izligini tavsiflash;

A.Chexov uslubiga xos an'ana va ixchamlik printsiplarini A.Qahhor ijodiga ta'siri masalalarini dalolatlash va janr taraqqiyotida badiiy uslubning umumiy va xususiy xususiyatlarini boshqa adiblar misolida ham asoslash;

syujet va kompozitsiya yaratishda yozuvchi individual uslubining o'sish-o'zgarishlarida badiiy mahorat va tajriba, iste'dodning roli muhimligini aniqlash hamda badiiy xronotopning roman voqeligi, syujet va kompozitsiya yaxlitligini ta'minlashdagi muhim omil ekanligini isbotlash.

Tadqiqot obyekti sifatida I.Bunin, A.Chexov, V.Rasputin, I.Turgenov, A.Qahhor, Sh.Xolmirzayev kabi yozuvchilarning asarlari olindi. Hikoya janri poetikasini va yozuvchi badiiy mahoratni biografik, qiyosiy usulda o'rganishga murojaat qilindi.

Tadqiqot predmetini hikoya janri taraqqiyotida badiiy mahorat va ijodkor konsepsiyasini aniqlash, syujet va kompozitsiya uyg'unligi, adabiy ta'sirdan ijodiy o'ziga xoslikni jahon adabiyotshunosligida kuzatilayotgan monografik tadqiqotlar

Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009; Раҳимов А. Роман санъати. – Фарғона: Фарғона нашриёти, 2015; Умунов Х. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002; Раҳимжонов Н. Бадиият – бош мезон. – Тошкент: Академнашр, 2016; Раҳимжонов Н. Адиб эстетикаси. – Тошкент: Фан, 2017; Қуронон Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти, 2004; Қуронон Д. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997; Қуронон Д. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: Академнашр, 2018; Қосимов У. Адабиётнинг ҳаётбахш кучи. – Тошкент: ЎзМУ кутубхонаси нашриёти, 2008; Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Мухаррир, 2011; Каримов Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2016.

hamda falsafiy-psixologik talqin estetikasini, mushtarak va alohidalik qirralari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, struktural, biografik, germenektivik va psixologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

dunyo adabiyotshunosligida hikoyaning adabiy janr sifatida paydo bo'lishi, genezisi va tadrijiy rivojlanish bosqichlari XX asr hikoyachiligi taraqqiyoti misolida rus va o'zbek yozuvchilarining hikoya janrida syujet yaratish mahorati, unda yozuvchi ijodiy konsepsiyasining o'sish-o'zgarishlarini qiyosiy-tipologik tasniflash asosida aniqlashtirilgan;

hikoya janrining taraqqiyotida badiiy uslubning umumiy va xususiy belgilari A.Chexov va A.Qahhor ijodiy konsepsiyasining boshqa yozuvchilarga syujet va kompozision yaxlitlikni ta'minlash nuqtai nazaridan ta'siri masalasini individual poetik mahoratning ahamiyatini badiiy komponentlar tig'izligini ta'minlash nuqtai nazaridan dalillash asosida aniqlashtirilgan;

hikoya janrining novelladan janriy belgilar bo'yicha farqi va syujet liniyalarining tarmoqlanishiga ko'ra tafovutlanishi I.Bunin, A.Chexov, V.Rasputin, I.Turgenov, A.Qahhor, Sh.Xolmirzaev asalarini qiyosan tahlil qilish hamda hikoya janrining ifoda xususiyatlarini badiiy uslub nuqtai nazaridan ochib berish asosida dalillangan;

badiiy xronotopning hikoya voqeligi, syujet va kompozisiya yaxlitligini ta'minlashdagi ahamiyati hikoyaning janr sifatidagi belgilari, joriy shaklu shamoyili, ixcham va ifodaviyligi, unga qo'yiladigan poetik mazmun va badiiylik shartlarini nasriy ifoda uslubining o'ziga xos xususiyatlari orqali aniqlashtirish asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati tahlilga tortilgan adabiy-badiiy, ilmiy-nazariy manbalardan, izlanishning yakuniy xulosalari sifatida tavsiya etilgan materiallardan o'zbek, yozuvchi mahorati va adabiyot nazariyasi masalalari hamda o'zbek va rus nasriga doir tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi;

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy ta'lim tizimidagi "Yangi o'zbek adabiyoti", "Jahon adabiyoti", "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Adabiyotshunoslik nazariyasi" kabi fanlardan darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda yordamchi material sifatida hamda yozuvchilar ijodi bo'yicha alohida seminar va maxsus kurslarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi respublikamiz hamda jahon olimlarning ilmiy-nazariy fikr va qarashlariga asoslangani;

e'lon qilingan tezis va maqolalar, ilmiy jurnallarda tadqiqotlar tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlangani;

tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlari qo'llanilgani;

yangi adabiyotshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi yordamida tahlil va talqin qilingani;

tadqiqotda ilgari surilgan amaliy taklif, tavsiya hamda xulosalarning ishonchligini ko'rsatadi.

Natijalarning joriy qilinishi. O‘zbek va rus hikoyachiligi taraqqiyotida syujet va kompozision yaxlitlik sintezi, badiiy mahorat va ijodiy konsepsiya uyg‘unligini ta’minlash borasida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

XX asr hikoyachiligi taraqqiyoti misolida rus va o‘zbek yozuvchilarining hikoya janrida syujet yaratish mahorati, unda yozuvchi ijodiy konsepsiyasining o‘rish-o‘zgarishlarini qiyosiy-tipologik tasniflash asosida aniqlashtirilgan dunyo adabiyotshunosligida hikoyaning adabiy janr sifatida paydo bo‘lishi, genezisi va tadrijiy rivojlanish bosqichlari, I.Bunin, A.Chexov, V.Rasputin, I.Turgenov, A.Qahhor, Sh.Xolmirzaev asalarini qiyosan tahlil qilish hamda hikoya janrining ifoda xususiyatlarini badiiy uslub nuqtai nazaridan ochib berish asosida dalillangan hikoya janrining novelladan janriy belgilar bo‘yicha farqi va syujet liniyalarining tarmoqlanishiga ko‘ra tafovutlanishi borasida bildirilgan nazariy qarashlar va ilmiy xulosalar “Jahon adabiyoti tarixi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 17 iyuldagi 314-buyrug‘iga asosan, 314-160-son nashr ruxsatnomasi). Natijada, ixtisoslik fanlarini o‘qitish, malaka oshirish kurslari, shuningdek, o‘zbek va xorijiy til guruhlarida ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchilarining dars samaradorligini oshirishga erishilgan;

A.Chexov va A. Qahhor ijodiy konsepsiyasining boshqa yozuvchilarga syujet va kompozision yaxlitlikni ta’minlash nuqtai nazaridan ta’siri masalasini individual poetik mahoratning ahamiyatini badiiy komponentlar tig‘izligini ta’minlash nuqtai nazaridan dalillash asosida aniqlashtirilgan hikoya janrining taraqqiyotida badiiy uslubning umumiy va xususiy belgilari oid nazariy qarashlari va ilmiy xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi tomonidan amalga oshirilgan FA-F1 - OO5 “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasi va 2017-2020 yillarda amalga oshirilgan F1-FA-O-43429 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarish jarayonida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023 yil 21 iyuldagi 300/1-ma’lumotnomasi). Natijada, ixtisoslik fanlarini o‘qitish, malaka oshirish kurslari, shuningdek, o‘zbek va rus guruhlarida ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchilarining dars samaradorligini oshirishga erishilgan;

hikoyaning janr sifatidagi belgilari, joriy shaklu shamoyili, ixcham va ifodaviyligi, unga qo‘yiladigan poetik mazmun va badiiylik shartlarini nasriy ifoda uslubining o‘ziga xos xususiyatlari orqali aniqlashtirish asosida ochib berilgan badiiy xronotopning hikoya voqeligi, syujet va kompozisiya yaxlitligini ta’minlashdagi ahamiyati ilmiy xulosalar 574099–EPP-1-2016-1-IT-EPPKA2-CBHE-SP raqamli “Oliy ta’lim salohiyatini rivojlantirish va dolzarbligi, sifati va tengligini ta’minlash uchun PAWERning mintaqalararo harakatchanligini ta’minlash” mavzusidagi ilmiy loyihani bajarish jarayonida foydalanilgan (Termez davlat universitetining 2023 yil 20 iyuldagi 06/12-3053-son dalolatnomasi). Natijada, umumiy o‘rta va oliy ta’lim muassasalari hamkorligi asosida yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatining shakllanish va dunyoqarashini kengaytirishga zamin yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyalari. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, shulardan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning hajmi 128 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqotning tuzilishi va hajmi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Hikoyachilik an'anasi va o'zbek adabiyotida taraqqiyot tamoyillari**" deb nomlangan bo'lib, birinchi faslida "**O'zbek-rus hikoyachilik maktablari: adabiy ta'sir va ijodiy o'ziga xoslik**" masalalariga oydinlik kiritiladi. Har qanday milliy adabiyotning shakllanishi va rivojlanish tendentsiyalari o'zidan oldingi an'ana va boshqa xalqlar adabiyoti ta'siri doirasida mukammalashib, sayqallanib boradi. XX asr boshlarida dunyo adabiyotining mavzu-mundarijasiga teran nazar tashlaydigan bo'lsak, shu choqqacha bosib o'tilgan yo'lning o'zidan oldingi vorislarining mantiqiy davomidir desak, haq gapni aytgan bo'lamiz. Shuning uchun ham hikoya janrnining tamal toshini qo'ygan adiblar haqida gap ketganda, avvalo, o'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Qahhor, Shukur Xolmirzayev, O'lmas Umarbekov, O'tkir Hoshimovlar ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Bularning ijodiy izlanishlarini tagini bir tadqiq qilib ko'rganimizda G'arbu Sharq an'analariining poetik sintezini kuzatamiz. Rus hikoyachilik maktabining peshqadamlaridan biri Anton Chexov kabi xo'p va ko'p yozgan adibni uchratish amrimahol. To'g'ri, Chexov yashagan rus adabiyotining oltin davrida qator hikoyanavislar paydo bo'lgan. Ungacha Tolstoy, Dostoevskiy kabi ijodkorlar ba'zi hikoyalarini "romandan katta hikoyalar"dir (Sh.Xolmirzayev) deya nom berganlar. Chunki roman keng qamrovli poetik o'zgaruvchan ahamiyatga ega janr bo'lishi bilan bir qatorda, unga yuklatilgan shakliy-mazmuniy "yuk" vazifasini hajm jihatdan katta hikoyalar ham "tosh bosishi"ni hisobga olish zarur. Natijada janrning o'zi an'anaviylikdan – noan'anaviylikka o'tib turish tamoyillarini yuzaga chiqarishi aniq bo'lib qoladi. Rus hikoyachiligi o'z-o'zidan bir vaqtning o'zida paydo bo'lib qolgan adabiy hodisalardan emas, albatta! Negaki, XIX asrning ikkinchi yarmida dunyo adabiyotida ko'zga tashlangan katta o'zgarishlar bir-biriga ta'sir qilish mexanizmini

jadal suratlarda rivojlanishiga sharoit hozirladi. Mana shu sharoit taqozosi o'laroq, poetik talqin xilma-xilligi yangi rakurslarda yuzaga chiqishi ma'lum bo'ldi. XX asr boshlarida Abdulla Qodiriy an'analari negizida Abdulla Qahhor ijodiy maktabi 50-yillarga kelib o'zining yangi bosqichiga evrildi. Bunga asosiy sabab, ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi xalq hayotining nihoyatda og'ir turmushi, yashashi, kun ko'rishi qiyinlashdi. Inson tuyg'ularini, dardu hasratlarini, qahatchilik, insonlararo munosabatlar tig'izlashuviga olib keldi. Buning natijasida hikoya arxitektonikasi tubdan o'zgarishga yuz tutdi. Biz har qachongidan ham XX asrning adabiy manzarasi haqida so'z yuritganda ikki jihatni e'tiborga olishni unutmaslik lozim: birinchidan, inson shaxsiga bo'lgan e'tibor, uning yashash maydonidagi uzil-kesil o'zgarishlar birligi bo'lsa, ikkinchidan, shaxs tuyg'ularida va ongida kechayotgan mavjudlik jumbog'ini anglash prinsiplarining teranlashuvini baholashdan iborat. Boshqacha aytganda, o'sha davr adabiy manzaralarida tushkunlik orqasida chiqib kelayotgan umid va nur azim an'analarni yanada jiddiy anglashga keng imkon beradi.

G'arb adabiyotida Kafka, Kamyu, Joys an'analari, rus adabiyotida I.Bunin, A.Chexov, V.Rasputin, I.Turgenev ijodiy izlanishlari ta'siri natijasida o'zbek yozuvchilari hikoya poetikasidagi milliy o'ziga xoslikning kamol topishiga o'z hissasini qo'shdilar. Professor A.Rasulov yozishicha: "Abdulla Qahhor asarlaridagi Turobjon ("Anor"), Sotiboldi "(Bemor), Unsinoy ("Dahshat"), Babar, Azim Duduq ("O'tmishdan ertaklar") mute, haq-huquqsiz, nochor kambag'allar. Ammo ularning qalbida ezgulikka intiqlik, erkka tashnalik, oilaviy baxtga ilinj bor. Uvoq-ushshoqina Unsinoy erk ilinjida uncha-muncha erkak yuragi dov bermaydigan yumushni uddalashga chog'lanadi. Babar ham bo'sh-bayov, qo'rqqina odam. Ammo uning aniq rejasi bor: pul yig'adi, xotinini Teshiktoshga olib boradi, quturish balosidan saqlab qoladi..."⁴ Darvoqe, munaqqidning fikrlari o'rinli. Yozuvchi qaysi asarini olib ko'rmang, unda huqulari toptalgan, yupun va ojiz odamlar xarakteriga ro'baro' kelasiz. A.Chexov hikoyalarida ham shunday manzaraga yuzma-yuz kelish mumkin. Har ikki ijodkor bir-biriga so'z uzatgan ustoz-shogird an'analarni yodimizga soladi. Mana shu adabiy bog'liqlik yozuvchilarning – o'zbek va rus hikoyachiligidagi ta'sir maydonini aniqlashda juda qo'l keladi. Negaki, rus hikoyachiligining faol adibi Chexovdan ta'sirlanish – Abdulla Qahhor qalamining yanada charxlanishiga, o'zbekona ruhni berishga keng imkon yaratdi. Biz ayni shu hosilani unutmasligimiz muhim.

Tadqiqotchi M.Obidjonov shartli ijodiy kognitiv ijodiy jarayonni 4 turga bo'lib talqin qiladi: **1. Obyektiv borliq. 2. Suybektiv tasavvur. 3. Adabiy ta'sir. 4. Yozuvchining badiiy olami**⁵. Ko'rib o'tganimizdek, A.Chexov ijodiy izlanishlarida obyekt va predmet o'zini o'rab turgan muhitdan bir qadam tashqariga siljmaydi. Chexov na o'zidan oldingi yozuvchilarni takrorlaydi, na o'zining davridagi yozuvchilarni. Orginal bir umumlashmalar chiqara olganki, tasvir va talqinda F.M. Dostoevskiy, L.Tolstoy singari yozuvchilarning benihoya keng tafakkur bo'lishi bilan bog'liq tasvir prinsiplarini sira o'ziga o'xshamagan holda idroklay oladi.

⁴ Rasulov A. Бадийлик – безавол янгилик. –Тошкент: Шарқ. 2007. – Б.68.

⁵ Обиджонова М. Инглиз ва ўзбек фантастик ҳикоячилиги: оригинал ва муштарак тенденциялар. Филол. Фан.бўйича фал.доктори. автореф. –Тошкент: 2022. - Б.16.

Ushbu bobning ikkinchi fasli “**Shakliy-uslubiy izlanishlar va rus hikoyachiligi**” deya nomlandi. Rus shoiri va yozuvchisi Nobel mukofoti sohibi, Peterburg Fanlar Akademiyasi faxriy akademigi Ivan Bunin ijodida hikoya janri alohida o‘rin egallaydi. Adibning hikoyalari o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi insoniy munosabatlarning o‘ziga xos namunasini ko‘rishimiz mumkin. Adib asarlarida alohida o‘rin tutadigan drabllari (drabll) shular jumlasidandir. Adabiyotshunoslik lug‘atlarida atamaga shunday ta’rif beriladi: “Drabbl (inglizcha drabble - parcha, bo‘lak) - hikoyaning o‘ziga xos kichik janri. Unda, asosan, biror voqeaning qisqacha tarixi beriladi. Drabblni kutilmagan yechim bilan yakun topuvchi eng qisqa va tugal hikoya deyish mumkin”. Haqiqatdan ham, rus yozuvchisi Ivan Bunin eng qisqa hikoyalarida jamiyatdagi ba’zi illatlarni tanqidiy idroklaydi. Qahramonlarning tabiiy hayoti va yashash tarzini haqqoniy tasvirlaydi:

“Tilanchi kampir boy xonadon darvozasi yonida paydo bo‘ldi. Egnida kampirlarga xos juldur kiyim, qoqsuyak oyoqlarida kampirlarga xos osilib-solinib yotgan paypoq, mungli ko‘zlar...”

Unga ellik tiyin tutqazdim-da, gapga soldim:

– Mana, buvijon, sizning bormagan yeringiz, kirmagan eshigingiz yo‘q, – hayotda ancha-muncha narsalarni ko‘rib qo‘ydingiz-ov?

Kampir ko‘zlaridan achchiq ko‘z yoshi to‘kib dedi:

– Boshqa nima ham qildim, otaxon, qo‘limdan boshqa nima ham kelardi!

Chala, pala-partish olingan sochi oppoq oqarib bitgan, egnida xotinlarning yalangqavat ko‘ylagi, yelkasiga xalta osib olgan Vanya ovsar o‘tloqdan oqsab-to‘qsab arang qadam bosib boradi:

– Omonmisan, Vanya! Ahvollar qalay?

Vanya so‘lagini oqizgancha xursand ohangda:

– Tuproqdan tashqari – shunga ham shukur... – deb javob berdi duv to‘kilgan ko‘z yoshlarini artib”⁶.

“Ko‘z yoshlar” deb nomlangan ushbu drabll yozuvchining poetik mahorati yuksakligidan dalolat bermoqda. Birgina ixcham epizodik lavhada – yo‘qsil kampirning butun ohu nolasini tasavvur qilamiz. Ayniqsa, o‘sha tuzum davrida jamiyatdagi qashshoq odamlarning ahvol ruhiyatidagi achchiq iztiroblar haqqoniy ravishda o‘z ifodasini topgan. Yozuvchi kampirning taqdiriga zimdan nazar tashlar ekan, badiiy bo‘yoqdorlikni kuchaytiradi. Uning armonlari, o‘ksik qalbidagi chuqur iztiroblarini yurak-yuragidan o‘tkazib baholaydi.

Kinoya bilan sarkazmni farqlab olish zarur. Chexov hikoyalarida kinoyaviy-parodik usul jamiyatdagi qatlamlar, guruhlar va oddiy odamlar ruhiyatidagi o‘shish-o‘zgarshilarni o‘tkir tanqidiy ruhda idroklaydi. Mana shu jihatlar Chexov uslubiga xos ixchamlik va siqiq bir tasvir yo‘sinlarini rivojlantirishga xizmat qilgan. Tadqiqotchi M.Sheraliyeva shunday yozadi: “Nazariy adabiyotlarda sarkazmga kinoyaning yuqori darajasi sifatida qaraladi. Rus olimi V.Tyupa modus nazariyasi asosida kinoya bilan sarkazmning obyektini quyidagicha farqlaydi. Kinoya “o‘zim uchun men” bilan “boshqalar uchun men” o‘rtasidagi muvofiqlikdan tug‘iladi, unda “boshqalar uchun men” o‘rtasidagi nomuvofiqlikdan tug‘iladi, unda insonning asl

⁶ <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/ivan-bunin/ivan-bunin-qisqa-hikoyalar/>

“men”i bilib-bilmaslikka olish orqali ifodalanadi: sarkazm obyektida esa niqob ortida “men” – individuallik mavjud bo‘lmaydi, qahramon niqobsiz mavjud emas, uning uchun niqob olamda mavjud bo‘lishning yagona shakliga aylangan⁷. Binobarin, kinoyaning xarakter ruhiyatini va jamiyat hayotidagi katta-kichik ishlarning ro‘y berish vaqti bilan ro‘y berishga sabab bo‘lgan omillarni yaxlitlashtirishga qaratilgani bejiz emas. Shu jihatlar Chexov hikoyalari arxitektonikasini belgilab berishga katta hissa qo‘shgan. Yozuvchining “Semiz va oriqlik” hikoyasidagi kinoyaviy usulni ko‘rib chiqamiz:

“Nikolayev temir yo‘lining vokzalida ikki oshna uchrashib qoldi. Biri semiz, biri oriqlik. Semiz hozirgina vokzaldan ovqat yegan – yog‘liqlik labi pishgan olchaday yaltirab turibdi. Undan xeres vinosi va flerd oranje degan atirning hidi kelar edi. Oriqlik esa vagondan hozirgina tushgan va chemadon, tugun, kartonlar ko‘tarib olgan edi. Undan vetchina va qahva hidi kelar edi. Uning orqasida oriqlik, cho‘ziqlik yuzli xotini, qisiqlik ko‘zli novcha gimnazist o‘g‘li turibdi.

– Profiriy! – dedi, semiz, oriqlikni ko‘rib. – Senmisan! Bo‘talog‘im! Necha-necha yoz, necha-necha qishlar o‘tib ketdi!

– E! – dedi oriqlik hayoron qolib. – Misha! Birodarim! Qadrdonim. Xo‘p, eson-omon bormisan?

Oshnolar qayta-qayta, uch marta, og‘iz-burun o‘pishgandan keyin ko‘zlariga yosh olib tikilishdi. Ikkovi ham o‘zida yo‘q xursand bo‘lib dovdirab qoldi”⁸.

Keltirilgan manbaga diqqat qilinsa, ikki qadrdon oshnaning *uchrashuv* sahnasini o‘tkir kinoya va piching bilan boshlaydi. Tasvirda yozuvchi semiz bilan oriqlikning tabiatini, xarakterini, ularning kim va qanday yashaganliklarni birgina dialogik epizodda tanishtiradi. Kinoya qilinayotgan obyekt – ikki oshna (do‘st)ning butun hayoti va ularni bog‘lab turgan rishtalarning istiqboliga qaratilgan. Adib semizning xarakteriga mos – daryo toshsa to‘pig‘iga kelmaydigan, beg‘am va xotirjam odamlar ruhiyatini jamlasa, oriqlik xarakterida tinib-tinchimas va bir kuyunchak, behalovat inson obrazini gavdalantiradi. Hikoyaning kompozitsiyasi juda puxta tuzilgan bo‘lib, syujetga xos unsurlarning (tugun) o‘rni-o‘rnida qo‘llanilgani bilan izohlash mumkin.

Bobning “*Mavzu ko‘lami va davr manzaralari talqini*” deb nomlangan uchinchi faslida yozuvchilardan I.Bunin, A.Chexov, I.Turgenov, A.Qahhor, Sh.Xolmirzaev kabi yozuvchilar syujet va kompozitsiya yaratishdagi uslubiy-shakliy izlanishlari borasida qiyosiy-tipologik mulohazalarga e‘tibor qaratdin. Rus hikoyachiligida ovchi obrazini olib kirgan, ko‘plab madaniy hayot sarchashmalarini o‘zlashtirgan, noyob iqtidor va zehniyat egasi Ivan Turgenev ijodining o‘zbek adabiyoti, xususan badiiy hikoyachilikka ta’sirini alohida ta’kidlash lozim.

O‘zbek va rus adabiyotida ov mavzusi bilan bog‘liqlik hikoyalar poetikasi: Har bir yozuvchi inson faoliyati bilan bog‘liqlik o‘ziga xos hayot qonuniyatini tasvirlashga e‘tibor beradi. Bugungi kunda garchi bu mavzu borasida nisbatan kam yozilayotgan esa-da, o‘tgan asrning 60-70-yillarida, keyinchalik istiqlolning ilk yillarida juda ko‘plab ov va shu kabi tabiat hodisalari bilan bog‘liqlik yuzlab hikoyalar

⁷ Шералиева М. Ўзбек насрида киноя. –Тошкент: “Академнашр”, 2017. –Б.65.

⁸ Чехов А.П. Ҳикоялар. –Тошкент: “Book media nashr”, 2021. – Б.269-270.

yaratilgan. O‘zbekiston Xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev mana shu mavzuni yanada yuksak darajada talqin qilib, shedevr⁹ hikoyalar yarata oldi.

Badiiy ijodning turli janrlarida barakali qalam tebratgan iste’doli yozuvchi butun insoniyatni dardu tashvishlari bilan iztirob chekib yashadi. Yozuvchi ijodida hajv va kinoya yetakchi tasvir usuli sanaladi. Xuddi zamondoshlari A.Chexov, L.Tolstoy, N.Gogol singari davr manzaralari va muhit muammolarini ich-ichidan his qilgan holda teran falsafiy-psixologik tarzda idroklaydi. Yozuvchining “Nodon” hikoyasini tahlil qilib ko‘raylik. Xuddi Chexovning “Xamelon”(“Buqalamun”) nomli hikoyasidagidek, A.Qahorning “O‘g‘ri”, “Boshsiz odam”, Sh.Xolmirzayevning “Ustoz”, “O‘zbek xarakteri” kabi hikoyalaridagi mavzu va davr manzaralari ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

Rus adibi Ivan Turgenevning “Bejin o‘tlog‘i” hikoyasidagi poetik matritsa bola va taibat orasidagi uyg‘unlikni teran falsafiy-psixologik kartinalar negizida idroklaganini ko‘ramiz. Shunday ekan, yozuvchi tasvirlar kolliziyasiga birdaniga o‘tmaydi, osmonning qanday holatdaligi, o‘rmondagi narsa va hodisalar (daraxtlar joylashuvi)ni asta-sekinlik bilan ovchiga tanittirib boradi. Mana shu keng rakursda tanishtirish yozuvchining benihoya keng tafakkur sohibi ekanligini, hali 40 yoshga kirmagan iste’dod egasining badiiy nasrdagi izlanishlari sermahsul ekanligini namoyon qilganligini tushunish qiyin emas! Ushbu tasvirga e’tibor qaratamiz:

“Jar labiga uzatgan oyog‘imni darrov tortib oldim va kechaning g‘ira-shira qorong‘isida pastlikda katta bir vodiyni ko‘rdim. Mening yonimda yarim doira shaklida oqayotgan keng daryo vodiyning tevaragidan aylanib o‘tardi; suvning goh-goh oynadek yaltirab jilva qilishi daryoning oqib turganini ko‘rsatardi. Men turgan tepalik pastga tomon juda tik jar shaklida davom etardi; uning haybatli qora summoti moviy osmon bo‘shlig‘ida ajralib turardi va shundoq takkinamda, haligi tik jar bilan yalanglik o‘rtasida hosil bo‘lgan burchakda, daryoning xira oyna singari harakatsiz turgan joyidagi qirg‘oq bo‘yida, tepalikning pastga tik tushgan yerida – pastda, bir-biriga yonma-yon ikki gulxan qip-qizil alanga va tutun chiqarib yonib turardi. Gulxanlar atrofida odamlar ivirsib yurar, soyalar tebranar, ba‘zan jingalak sochli kichkina kallaning oldingi yarim qismi gulxan yorug‘ida aniq ko‘rinardi...”¹⁰

Hikoya qahramoniga hamrohlik qilgan to‘rt oyoqli malla-chovkar it – Dianki bilan xuddi odam bilan suhbatlashgandek muloqot qiladi. Hikoya muallifi it va insonning o‘zaro munosabatlarini shu qadar ich-ichidan his qilib tasvirlashni odat qiladiki, natijada itning egasiga chuqur sadoqatini tuya boshlaydi. “Ovchi maktublari” turkumiga kiruvchi bu hikoyada yozuvchining ijodiy konseptsiyasi bitta, u ham bo‘lsa, *tabiat-jamiat-inson* birligini uyg‘un holda ko‘rsatishdan iboratligida ko‘rinadi. Mazkur tushuncha hikoyanavisning tabiat manzaralariga oshuftaligi, xuddi Jek London singari, Don Kixot kabi ulug‘ yozuvchilar qatorida o‘zining tasavvur olami manzarasini xilma-xil bo‘yoqlarda ko‘rsatishga qodirligini, mahoratini namoyon etganligida seziladi.

Ishning ikkinchi bobi “**Poetik yaxlitlikni ta’minlovchi omillar**” deb nomlanib, birinchi faslida “*Syujet va kompozitsiya uyg‘unligi*”ga aniqlik kiritiladi. Hikoya janri

⁹ Шедевр – ноёб, гавҳар

¹⁰ <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/ivan-turgenev/ivan-turgenev-bejin-utlogi-hikoya/>

borasida tadqiqot olib borayotgan K.Hamrayev hikoyada qo'llanilgan sarlavhani to'rt guruhga bo'lib o'rganish muhimligini tasniflaydi. Bulardan birinchisi, hikoyadan o'sib chiquvchi sarlavha, ikkinchisi majoziy sarlavha, uchinchisi ruhiy-emotsional sarlavha, to'rtinchisi xronotop sarlavha¹¹. Haqiqatdan ham, tadqiqotchi mulohazalarida jon bor. Chunki hikoyada syujet va kompozitsiyani yuzaga chiqishida sarlavhada ko'pchincha yozuvchining asosiy ijodiy konseptsiyasi aks ettirilgan bo'ladi. Bunday qarash, bir tomondan hikoyaning kompozitsiyasiga oid unsurlarini yaxlitlashtiradi. Syujetni harakatini (dinamika) tezlashtiradi. Shu boisdan ham, Chexov va Sh.Xolmirzayev hikoyalaridagi tag ma'no yoki A.Qahhor uslubiga xos siqiq bir holatni aniqlashga keng yo'l ochadi. A.Chexovning "Xamelon" hikoyasini o'zbek tiliga Abdulla Qahhor tarjima qilgan. Mana shu hikoya ta'sirida o'zbek adabiyotida o'nlab shedevr hikoyalar yaratilgan. It bilan bog'liq yoki shunga o'xshash hikoyalar mavzusiga e'tibor bersak, ko'pchiligida davr va hayot manzaralari aks ettirilgan.

Filologiya fanlari doktori M.Qo'chqorova yozishicha: "Hozirgi o'zbek prozasi uslub va ijodiy originallik yaratishda XX asrda yashab, ijod etgan o'zbek prozasining yirik vakillari va asoschilari A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Hamza, A.Qahhor, G'.G'ulom, Oybek, A.Muxtor singari ijodkorlarning adabiy mahorat maktabidan o'rgandi. Buni o'zbek prozasining individual qiyofasini yaratishdagi birlamchi adabiy omil sifatida baholash mumkin. Bundan tashqari, Sharq mumtoz adabiyoti an'analari, o'zbek xalq og'zaki ijodining hayotbaxsh ta'siri ham hozirgi o'zbek prozasining shakllanishida asosiy poydevor vazifasini bajardi. Biroq tilga olingan omillardan tashqari, bugungi kun yozuvchilari uchun dunyo adabiyotining yirik adiblari, jumladan, M.F.Dostoevskiy, E.Xeminguey, U.Folkner, Herman Hesse, G.G.Markes, F.Kafka, A.Kamyu, J.Joys, Dino Butsatti, M.Bulgakov, Ch.Aytmatovlarning proza sohasidagi ulkan ijodiy tajribalari, kutilmagan badiiy shartli topilmalari bilan bog'liq mahorat maktabi, ijodiy ta'sir maydoni bo'lib xizmat qildi¹². Bu mulohazalar rus va o'zbek hikoyanavislari uchun ham muhim omil. Negaki, hikoyadagi tagqatlam, mavzu, syujet va kompozitsiya barchasi yozuvchining umumiy olamini birlashtiradi. A.Chexov talqinlari A.Qahhor ijodida o'sdi. Yanada rivoj topdi. Bu haqda 1971-yil "Sharq yulduzi" jurnalining 1-sonida Shukur Xolmirzayev "Hikoya haqida" nomli maqolasini e'lon qiladi. Maqolada Sh.Xolmirzayev – to'rtta ulug' hikoyanavisni sanab o'tadi. Bular Rus adabiyotida – Chexov, ingliz adabiyotida Jek London, hind adabiyotida Tagor, o'zbek adabiyotida Abdulla Qahhor¹³. Aynan ushbu baholash dunyo adabiyotida klassik darajasiga ko'tarilgan yozuvchining o'zigagina tegishli bahodir.

Badiiy asar (hikoya)ning poetik butunligini ta'minlovchi omillardan biri syujet va kompozitsiyaning roli benihoya kattadir. Syujet qismlardan, elementlardan tarkib topib, kompozitsiyaning muayyan qoliplariga tutashadi. Natijada xilma-xil dialektik usullar ifodasi yuzaga keldi. Ayniqsa, o'zbek adabiyotida A.Qahhor, Oybek, G'.G'ulomdan keyin Sh.Xolmirzayev, O'.Umarbekov, O'.Hoshimov asarlari bunga

¹¹ Хамраев К. Ҳозирги ўзбек ҳикоясида композиция поэтикаси. Филол. фан. бўйича.фал. док.... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. –Б.18.

¹² Қўчқорова М. Ҳозирги ўзбек насрида бадий шартлилик. Филол. фан. док... дисс... –Тошкент, 2020. – Б.33.

¹³ Холмирзаев Ш. Ҳикоя ҳақида// Шарқ юлдузи. №1. 1971. –Б.72-73.

yorqin misol bo'radi. Demak, hikoya o'z strukturasi ko'ra hozirjavob, ixcham va ma'lum hayotiy bir voqelik evaziga yuzaga kelishini inobatga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi.

Bobning ikkinchi fasli *“Xarakter yaratishda ijodkor mahorati”* deya nomlangan. Unda hikoya poetikasida xarakterning umumiy va xususiy jihatlarga diqqat qaratiladi. Yozuvchining xarakterga badiiy ishlov berishi, u syujet va kompozitsiyada muhim sanalishini taqozolaydi. Badiiy xarakter haqida rus olimlaridan M.Baxtin, Y.Borev, V.Xalizev, A.B.Yesin, L.I.Timofeyev, N.D.Tamarchenko monografik tadqiqotlari¹⁴, o'zbek adabiyotshunosligida M.Qo'shjonov, B.Sarimsoqov, T.Boboyev, E.Xudoyberdiyev, U.Normatov, A.Rasulov, Q.Yo'ldoshev, S.Meliyev, A.Ulug'ov, D.Quronov, B.Karimov, U.Jo'raqulov kabi olim va munaqqidlar ba'zi asarlarga munosabat bildirib, ayrim yozuvchilarni xarakter yaratish mahoratiga to'xtalib o'tganlar¹⁵. Darhaqiqat, o'zbek va rus hikoyachiligida badiiy xarakterni shakllantirish har ikkala xalq adabiyotidagi shakliy-uslubiy izlanishlarga borib tutashuvini yodda tutmoq lozim. Negaki, o'zbek nasrida azal-azaldan hikoyachilik eng qadimga folklor an'analarga borib taqaladi. Shuningdek, hikoya poetikasida oddiy xarakterni – birgina detal bilan ham boyitish, rivojlantirish mumkin. XX asr 60-yillarida o'zbek adabiyotiga yorqin bir iste'dod kirib keldi. Ana shu iste'dod ilk hikoyalari bilan akademik M.Qo'shjonov nazariga tushdi. Bu yozuvchi o'zining hali maktab paytida o'qib yurganidayoq *“Xatarli so'qmoqda”* nomli hikoyasi bilan ulug' munaqqid tahsiniga sazovor bo'ldi. Bundan keyin yozuvchi tinimsiz mutolaa va izlanish bilan shug'ullanib, o'zbek adabiyotida jahon va rus hikoyachiligi maktabini sintezini yaratdi. Ayni bu sintez jarayonida yozuvchi A.Chexov, L.Tolstoy, I.Turgenev, N.Gogol kabi yozuvchilar qatorida J.London, Balzak, Mopassan, Joys, Kafka va Kamyu singari Yevropa yozuchilaridan katta ilhom oldi. Adibning *“Yashil niva”*, *“O'zbek xakteri”*, *“Odam”*, *“Ozodlik”*, *“Tanholik”*, *“O'zbek bobo”*, *“Ikki jahon ovorasi”*, *“Ustoz”*, *“Bandi burgut”*, *“Bulut to'sgan oy”* kabi o'nlab hikoyalarida adibning falsafiy-estetik zalvorli nutqi, xarakter yaratish mahorati, ijtimoiy-maishiy muammolarni teran ruhda ochib berish uslubi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Adabiyotshunoslik lug'atida *“Xarakter (yun. sharacter iz. belgi, barflovchi xususiyat) – badiiy xarakter; muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida*

¹⁴ Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Художественная литература, 1972; Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1971; Тамарченко Н.Д. Теория литературы. – М.: Академа, 2004; Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – М.: Просвещение, 1988.

¹⁵ Қўшжонов М. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2018; Саримсоқов Б.И. Бадийлик асослари ва мезонлари – Т.: Фан, 2004; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча луғати. – Т.:Ўқитувчи, 1983; Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002; Худойбердиев Э. Адабиётшунослика кириш. – Т.: Шарқ, 2008; Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2007; Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2006; Йўлдошев Қ., Йўлдошева М. Бадий таҳлил асослари. – Т.: Камалак., 2016; Мелиев С. Сўзу сўз. – Т.: Шарқ, 2020; Улуғов А. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: Фафур Фулом, 2017; Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Т., Абдулла Қодирий, 2004; Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: Навоий университети, 2018; Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: Академнашр, 2018; Каримов Б. Рухият алифбоси. – Т.: Фафур Фулом, 2018; Жўрақулов У. Қодирий ва роман тафаккури. – Т.: Нурафшон бусинесс, 2020; Расулова У. XX аср ўзбек кинесачилиги. – Т.: Қамар медиа, 2020; Дўсмухамедов Х.Н. Ҳозирги ўзбек хикоячилигида бадий тафаккур янгилиниши. Филол. фан. номз. ...дисс.– Т.: 1995; Холмуродов А. Ўзбек кинесачилиги: тараккиёт ва муаммолари. Филол. фан. докт ...дисс. – Т.: 2008.

uyg'un mujassam etgan inson obrazi. Badiiy xarakter o'zida obyektiv va subyektiv jihatlarni birlashtiradi. Inson hayotning ijtimoiy-psixologik realligi (bu o'rinda x.ning real asosi, ya'ni uning hayotiy kuzatishlar yoki muayyan prototip asosida yaratilgani nazarda tutiladi) badiiy xarakterning obyektiv tomoni bo'lsa, uning ijodkor tomonidan hissiy idrok etilishi va g'oyaviy-hissiy baholanishi subyektiv tomonidir"¹⁶. Binobarin, xarakterning yozuvchi tomonidan qayta ishlanishi, uni murakkab shaklga aylantirilishida muhim qirralarni ko'ramiz. Shukur Xolmirzayev yaratgan bir-biridan farq etuvchi personajlar, obrazlar, xarakterlar har bir o'quvchini o'ylashga undaydi. Yozuvchining "Yashli niva" nomli hikoyasida yozuvchining xarakter yaratish mahoratiga to'xtalib o'tamiz.

Professor I.Yoqubov shunday yozadi: "Shukur Xolmirzayevning qahramonga munosabatdagi xolislik kitobxonning mushohada qudratiga bo'lgan ishonchdan darak beradi. Zero, personajlarning orzu-armonlari, dard-tashvishlari, o'y-mushohadalari inson ma'naviyatiga xos fazilat hamda nuqsonlar, ijtimoiy-maishiy muammolarga daxldordir. Shuning uchun ham kitobxon ularni tahlil etadi, xulosalarini chiqarishga urinadi. Adib zamon va zamondosh, ijtimoiy adolat tamoyillarini alohida odamning vijdon va iymon prizmasi orqali kuzatadi. Uning ma'naviy bisotini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bo'vastalikda tasvirlaydi. Uning qahramonlari tabiatida ba'zan ichish-chekish singari hollar ham kuzatiladiki, adib tashviqiy ravishda bunday illatlarni qoralashni emas, balki mazkur harakat-holatni tug'dirgan sabablarni ko'rsatishni maqsad qiladi. Natijada, millat qismatiga daxldorlik, ayni paytda ilojsizlik tuyg'usi bilan bog'liq iztirob-kechinmalarning turli darajalarini ochish, ijtimoiy o'zgarishlarning inson qalbiga ta'sirini badiiy gavdalantirish imkoni tug'iladi".¹⁷ Darhaqiqat, munaqqidning mulohazalari to'laqonli yozuvchi ijodining ma'lum qirralarini tasniflaydi. Shu ma'noda, Sh.Xolmirzayev rus va jahon adiblari ijodida tamomila farqli ravishda ko'plab hikoyalarini eksperiment (tajriba) tariqasida o'zbek adabiyotida sinovdan o'tkazdi. Adibning ko'pgina hikoyalarida xarakter o'ziga xosligi ta'minlangan.

"Hikoya ichida hikoya" qilish usuli ko'proq o'zbek adabiyotida Sh.Xolmirzayev badiiy izlanishlarida yaqqol namoyon bo'lgan. Buni quyidagi lavhada ham ko'rishimiz mumkin:

"Avvalo, shuni aytishim kerakki, biz tomonning odamlari ancha serandisha keladi. Buning tarixiy ildizlari bor: biz kattalarga – xususan, yoshi ulug'lar-u lavozimli shaxslarga ta'zim qilib o'rganganmiz.

Yo'g'asam zamonga qaramaysanmi deng. Sotsializmdan putur ketgani aniq: Pribaltikada Mustaqillik uchun namoyishlar bo'lyapti. Toshkent ham tinchini yo'qotgan...

Bizda esa Bag'doddagidek osoyishtalik"¹⁸.

Keltirilgan parchada Sh.Xolmirzayevning xarakter yaratishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, adib voqelikni to'g'ridan-to'g'ri maqsadga o'tish bilan boshlaydi. Chunki maqsad – yozuvchi idrokida "o'sha davr" amaldorlarining o'ziga

¹⁶ Куронов Д. ва бош. Адабиётшунослик луғати. –Т., Академнашр. 2013. –Б.352.

¹⁷ Ёқубов И. Бадий – эстетик сўз сеҳри.– Тошкент, "Times Uz", 2011. –112.6

¹⁸ Холмирзаев Ш. Сайланма. 4-жилдлик. –Тошкент, "Шарқ", 2005. – Б.73-74.

xos “tiyib” turishlari, oddiy xalq hayotini oddiy bir masaladek ko‘rishi, o‘zlariga bino qo‘ygan “diktator”lar nazarda tutilmoqda. Eng muhim jihati “Yashil niva”dan o‘zib ketmaslik. Yozuvchi ayni shu masalaga oydinlik kiritadi. Hikoya 1987-yil yozilgan. Hikoyadagi institut domlasining ismi ham sir tutiladi. Mamlakatimiz hali mustaqillikka erishmagan, oshkoralik davrida “o‘zbek ishi”, “paxta ishi” avj olgan bir paytda shu qadar o‘tkir haqiqatni badiiy asar (hikoya) ichiga olib kirganki, yozuvchi asardagi qishloq va shahar orasidagi voqelikni, yo‘ldagi “Yashil niva” mashmashashi bilan bog‘laydi. Demak, adibning o‘tkir uslubi, M.Sholoxov va L.Tolstoy, A.Chexov qo‘llagan badiiy bo‘yoqdorlikni yodimizga soladi. Mazkur jihat har bir epizodda yorqin bo‘yoqlarda gavdalanadi. Yozuvchining dialogdan unumli foydalanishida ham asar qahramonlarining tabiati, o‘y-xayollari, istak-xohishlari ochilib beriladi. Shu maqsadda, hikoyadagi tag ma‘noni anglash qiyinchilik tug‘dirmaydi. Asar tili sodda va ravon. I.Turgenev va A.Chexov kabi rassom sifatida ish ko‘radiki, uslubiy-shakliy mutanosiblik, syujet va kompozitsiyani muvofiqlashtirishga ixzmat qiladi. Ayni paytda adib, har bir epizodga “alohida bir ma‘no” yuklay boradi.

Bobning *“Badiiy kompozitsiya: portret va peyzaj birligi”* nomli faslida kompozitsiyaga oid unsurlar talqin qilinadi. Badiiy kompozitsiyaga oid fragmentlardan biri – portretdir. Portret haqida so‘z borganda yozuvchi shaxs ruhiyatini qanday va qay tariqa tasvirlay olishi tushuniladi. Biroq bu uch o‘lchamli dunyoda portret keyingi yillar hikoyachiligida ramziy-metaforik talqin birikuvini taqozo etmoqda. Adabiyotshunoslik lug‘atida “Portret (fr. Portarie -tasvirlamoq)” -1) personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o‘quvchi tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. P.ning epik asarning kompozitsion unsuri bo‘lmish tavsifning bir ko‘rinishidir. Shartli ravishda statik va dinamik P.turlari farqlanadi. Statik deyilishiga sabab shuki, P.ning bu navida personajning tashqi qiyofasi syujet voqeasi to‘xtatilgan holda ancha mufassal, detallashtirilib chiziladi. Odatda bunday P.lar personaj asar voqeligiga ilk bor kirib kelgan pallada (mas., “Kecha”dagi Razzoq so‘fi P.i) beriladi. Dinamik P. deganda esa mufassal tasvir emas, balki voqea va dialoglar ta‘svirida, ya‘ni harakat davomida berib boriluvchi personaj tashqi ko‘rinishiga xos ayrim detallar nazarda tutiladi”¹⁹. Ko‘rinadiki, statik va dinamik portretlar xuddi syujet tiplariga o‘xshab ikkiga ajratilib berilishi badiiy asar komponentlarini to‘g‘ri talqin qilishda qo‘l keladi. Negaki, badiiy komponentlar, ya‘ni kompozitsiyaga doir shakllarida syujetni harakatga keltiruvchi har qanday unsur yozuvchi ijodiy izlanishlari mahsuli sanaladi.

A.P.Chexovning quyidagi “Ayollik baxti” hikoyasida ayol portretini tasvirlarkan yozuvchi dinamik portretdan unumli foydalanadi. Yozuvchi hikoya davomida dinamik portretga murojaat qilarkan, generlaning oqsochi Vera Nikitishna qanday xarakter egasi ekanligini ixcham kartinalarda chizishga musharraf bo‘ladi:

“– Marhamat qilib qoldiring! – jahli chiqdi Probkinning. – Aslida ayollar ko‘pchilik orasida birinchi bo‘lib turtinishadi. Erkaklar bir nuqtaga tikilib turaveradi, xonimlar esa qo‘llarini keng qo‘yib, bemalol turtib ketaverishadi, nima bo‘lsa

¹⁹ Куронов Д., ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент, Академнашр. 2013. – Б.226-227.

bo'lsinu, bashang liboslari g'ijimlanmasin. G'iring deb ko'r-chi! Ayollar bor joyda omad eshigi hamisha ochiq. Xonimlar va askarlar uchun raqs kechalari ham bepul, ha, bir tiyinga olishmaydi. Hatto tan jazosidan ham osongina ozod qilishadi... Qaysi xizmatlari uchun degan savol tug'iladi. Poshsha qiz ro'molchasini tushirib yuborsa, sen engashib olib ber; u kirib kelsa, darhol o'ringdan turib, stulingni uzat; chiqib ketsa, kuzatib qo'y... Rasm-rusmni qara-ya! Qanday bo'lmasin, unga yetish, faraz qilaylik, beshinchi darajali martaba sohibi – menga yoki senga bir umr karnay chalish bo'lsa, bas. Oyimqiz esa yarim soatda yuqori martabali inson bilan yo'lini topib, nikohdan o'tib oladi-yu, bir pasda oliy zotli xonimga aylanadi. Bordi-yu, men knyaz yoki graf bo'lib qolsamu, butun dunyoni bo'ysundirmoqni ixtiyor etsam, Shipka cho'qqisini zabt etsamu, vazirlar huzurida bo'lib tursam, o'z panohingda asra, birorta ona suti og'zidan ketmagan Verenka yoki Katenka graf qarshisida paydo bo'lib, etagini aylantiradi, ko'zini suzadi – mana janobi oliyalari... Sen hozir gubernya kotibi... Bu martabangni, aytish mumkinki, qon yutib qo'lga kiritgansan; sening Marya Fominishnang-chi? U nima uchun gubernya kotibasi? Popning qiziligi uchun osongina amaldorning xotini ham bo'lib oldi. Ajoyib xotin! Sen unga ishimizni ber, u sening o'ringda keldi-ketdi xatlarini yozib o'tiradi”²⁰.

Hikoya ekspozitsiyasi generalning dafn marosimi bilan boshlanadi. General-leytenant Zapupirining dafniga kazo-kazolar yig'iladi. Dafn marosimiga to'plangan vazirlar, katta-katta amaldorlar kelishadi. Shunday bir paytda Generalning yolg'iz so'qqabosh o'tganligi va uning oqsoch xizmatkori xuddi o'zini katta amaldorning xotinidek tutishini juda chiroyli portretini chizadi. Hikoyaning “Ayollik baxti” deb nomlanishida ham ramziy ma'no bor. Har qanday go'zallik va latofat qarshisida bu go'zallikka taslim bo'lish buyuk baxt ekanligini ko'rsatish barobarida, oqsoch Vera Nikitishna portretiga munosabtlilik nutq ham mavjud. Yozuvchi bu nutqni hikoya voqeligiga sohib yuboradi. Bitta Generalning dafn marosimi orqali katta bir qissa yoki romanga arzigulik voqelikni ifodalay olganligini his qiladi o'quvchi. Chunonchi adib bu yerda ayollarning botiniy, tashqi olam bilan murosasini, doim o'z so'zini o'tkazishga harakat qilishini dinamik portret yo'sinida tasvirlaydi. Hikoyada *statik portret* turi Chexov va Qahhor ijodida ko'plab uchraydi. Biroq har ikkala yozuvchi ijodida portret va peyzajning roli alohidadir. Maslan, A.Qahhor ko'pincha epigraf orqali o'zining nima demoqchiligini o'quvchiga bildirib qo'ysa, Chexov vaziyat va holat, sharoit nuqtai nazaridan kelib chiqib tasvirlashni xush ko'radi.

Peyzaj badiiy yaxlitlikni ta'minlovchi vosita sifatida. O'zbek hikoyachiligida A.Qahhor va Sh.Xolmirzayev izlanishlarida badiiy portret alohida o'rin egallaydi. Chunki hikoyada tabiat tasviri (badiiy xarakter) o'ziga xos bo'ladiki, mana shu jarayonda yozuvchi mahoratining nechog'li yuksak yoki o'rtamiyona ekanligini bilib olish mumkin. Hikoya kompozitsiyasida oddiy detal buyumlar, joylar, o'rinlar, holatlarning tuzilishi, badiiy xarakterning qanday maqsadda asar syujetiga olib kirilishi, ularning badiiy vazifadoshligi kabi tushunchalarni muvofiqlashtirib turadi. Peyzaj haqida so'z ketganda, avvalo, shuni qayd etish joizki, inson tabiatning bir bo'lagi, u shu mavjudlik jumbog'ini anglash uchun yashaydi. Hayot kechiradi. Umrning mohiyatini, “tiriklik”ni anglaydi. Hikoyaning ko'pchiligida – didaktik ruh

²⁰ <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/anton-chexov/anton-chehov-ayollik-bahti-ikoya/>

ustunlik qiladi. Chunki tasvir etilayotgan har qanday muammo biror masalaga oydinlik kiritish uchun qo'llaniladi. Tarbiyviylik bosh mezon ekan, undagi yozuvchi kontsepsiyasi ana shu mezonni yuzaga chiqarishga xizmat qildiriladi.

Hikoyada peyzaj – psixologik portretni yuzaga chiqishida juda qo'l keladi. Dinamik portret – peyzaj (tasvir)ni quyuqlashtiradi. Qahramonlarning xatti-harakatlari orqali sodda va beg'ubor o'zbek xarakteri ochib beriladi.

Shunday ekan, hikoya poetikasida badiiy psixologizm komponenti (peyzaj va portret)ning ifoda qilinishi, yozuvchi va muhit o'rtasidagi ziddiyatlarni aniqlashda muayyan qulayliklarni keltirib chiqaradi.

Dissertatsiyaning **“Hikoyada badiiy xronotop talqini”** deb nomlangan uchinchi bobida makon va zamon haqida so'z boradi. Bobning **“Badiiy xronotop turlari va syujet birligi”** deb nomlangan faslida syuejtni harakatga keltiruvchi qator komponentlar tahlil qilinadi.

Badiiy asarda syujetga daxldor komponentlar qatori makon va zamon birligi ham alohida o'rin tutadi. Badiiy xronotop *makon* ichida zamoni, *zamon* ichida makonni ko'rsatib beruvchi, eng asosiysi xarakterlararo munosabatli nutqning yuzaga chiqishida, ijodkor konseptual niyatini ijro qilinishida muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, asar yaratilgan davr, sharoit taqozosi, muhit suvrati va siyrati, inson ruhiyatidagi azim evrilishlar, mafkura, din, axloq normalarining in'kosida badiiy xronotopning o'rni nihoyatda muhimdir. Ayniqsa, hikoyada ko'tarilgan muammo ko'lami, maqsad joriylanishi hal qiluvchi rol o'ynasada, xronotop shu jarayonni yaxlit tizim negizida suratlaydi. Shunday ekan, hikoya arixtekonikasida xronotopning o'rni alohidadir. Biz rus va o'zbek hikoyachiligini o'rganishda 2 ta muhim jihatni alohida urg'ulashni maqsad qildik:

1. Syujet poetikasi. Bu xususiyatda yozuvchining nimani va qanday tasvirlash manerasi, badiiy mahorati, matn tuzilishidagi uslubiy-shakliy izlanishlar, eng muhimi davr manzaralarini haqqoniy ifodalash ko'nikmalarining yuzaga chiqishi, olam ichida yashayotgan odam muammosining nechog'li dolzarbligi, umrboqiyiligi kabi o'nlab xususiyatlarni qamradi. Ijtimoiy-siyosiy bo'hronlarda shaxs psixologiyasi real mohiyat kasb etadi. Chunonchi, yangi davr bilan ma'rifatparvarlik davri orasida katta farq mavjud. Bu farqlanishlar A.Chexov va A.Qahhor, M.Sholoxov va Sh.Xolmirzayev badiiy izlanishlarida yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Mana shu o'ziga xoslik va muvofiqlik syujet va kompozitsiyani badiiy xronotopda jilvalantirishini taqozo etadi.

Rus munaqqidi M.M.Baxtin qayd etganidek: “Badiiy asarda makon va zamon muammosi, garchi unga qadar ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa ham, bevosita “xronotop” termini rus olimi M.Baxtin tomonidan o'tgan asrning 30-yillarida adabiyotshunoslikka tatbiq etilgan. “Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makonaro uyg'unlikni xronotop (so'zma-so'z tarjimada makon-zamon degan ma'noni bildiradi), deb ataymiz. Ushbu istiloh matematika ilmida (Eynshteynning) nisbiylik nazariyasi negizida qo'llab kelindi. Istilohning biz uchun, matematikada qo'llanadigan, maxsus tushuncha sifatida ahamiyati yo'q. Uni adabiyotshunoslikka (tom ma'noda bo'lmasa ham) istiora o'laroq qabul qilamiz. Biz uchun muhimi, bu o'rinda istilohning zamon va makonni uyg'un holatda (zamonning makonning

to'rtinchi o'lchami sifatida) ifodalashidir. Xronotopni biz adabiyotdagi shakl-mazmun kategoriyasi sifatida talqin qilamiz"²¹. Darhaqiqat, Mixail Baxtin talqinidagi badiiy xronotop syujet poetikasida xarakter va muhit qiyofasini to'laqonli idrok etishga katta zamin yaratadi. Chexov hikoyalarida shahar xronotopi alohida ahamiyat kasb etadi:

"S... degan gubern shahriga kelganlar, bu yer juda zerikarli va hayoti bir shakldaligidan shikoyat qilganlarida, mahalliy aholi go'yo o'zini oqlaganday, yo'q, aksincha, S. shahrimiz juda yaxshi, kutubxona, teatr, klub bor, bazmlar bo'lib turadi, yana tanishsa arziydigan farosatli, yoqimli, ajoyib oilalar bor, deydi. Bu o'rinda ular eng madaniy va iste'dodli oila deb, Turkinlarni tilga oladilar.

*...Doktor Dmitriy Ionich Startsev S. shahridan to'qqiz chaqirim narida bo'lgan Dyalijga zemstvo vrachi etib tayinlangan va bu yerga ko'chib kelganda unga ham, ziyoli odam bo'lgani uchun, Turkinlar oilasi bilan tanishish zarurligini aytishdi. Nima ham bo'lib, qish kunlarining birida, uni ko'chada Ivan Petrovich bilan tanishtirdilar, ob-havo to'g'risida, teatr to'g'risida, vabo to'g'risida gaplashdilar. Shundan keyin u uyga taklif etildi"*²².

Hikoya avtobiografik xarakterda bitilgan bo'lib, unda yozuvchi Chexovning butun hayotining bir qismi suratlanadi. Hikoya qahramoni Ionich Startsevning S. gubern shahriga mahalliy aholiga shifokor bo'lib kelishi va bir oilaning orzu havaslari, mehmondo'stligi, mehr-oqibatligi xususida davr, shahar va odamlar ruhiyatini chizib beradi. Chexov o'zining shaxsiy hayotini shu qadar jozibador qilib tasvirlaydiki, Startsev qismatini o'quvchi oldida ochib beradi. Turkinlar oilasi – shahardagi barcha oilalarning ramzi. Bu tariqa tasvirlash yozuvchining **shahar xronotop**ining maqsad-muddaosini ko'rsatishda, makon tutgan odamlar olamini gavalantirishda nihoyatda qo'l keladi.

Ishning ikkinchi fasli "**Badiiy uslub va ruhiy tahlil sinezi**" deb nomlangan bo'lib, mazkur faslda uslub va psixologizmning zamon hamda makonda namoyon bo'lish holati talqin qilindi. Badiiy uslub ijodkorning olam va odamga munosabatli nutqida, xarakterning tipik sharoit taqozosi o'laroq yuzaga chiqishida, syujetga xos elementlarning o'zaro bog'liqligida namoyon bo'ladi. Falsafiy-psixologik vaziyat taqozosi xarakter mukammallik kasb etadi. E'tibor beragemizda, A.Chexov yoki A.Qahhor badiiy uslubida o'zaro muvofiq nuqtalar mavjud. Chexov kabi A.Qahhor ham hikoya qilayotgan maydon, zamon, makon va adabiy sahnada rol ijro qilayotgan obrazlar shartli ravishda tayyor holatda matnga singdiriladi. A.Qahhor hikoyalari ba'zi o'rinlarda novella deb yuritiladi, unda kuchli dramatism, davrning muhim belgilari, ijtimoiy munosabatlar tig'izlashuvi, "muammoning muammosi odam" ekanligi ayonlashadi. Uslub – zamon va makonda kechayotgan mavjud muammolarni hal qilishda muhim. Chunki yozuvchi o'z individual uslubi orqali jamiyat ichida sodir bo'layotgan maishiy, umuminsoniy masalalarni hal qilishga qodirligi bilan xarakterlanadi. A.Chexov hikoyalarida – kinoya, komiklik, hajv va jiddiy talqin ustuvorligi ko'zga tashlansa, A.Qahhorda ham jamiyatdagi ba'zi bir

²¹ Бахтин М. Формы времени и хронотопа в романе(Очерки по исторической поэтике) / В кн.: Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. –М.: Художественная литература, 1975. – ст. 234.

²² <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/anton-chexov/anton-chexov-ionich-hikoya/>

illatlarni tanqidiy nigoh bilan hajviy yoʻsinda oʻquvchilarga tanishtirish yoʻlidan boradi.

Hikoyachilikdagi bu holatni quyidagi ikki jihatda ajratib olish zarur:

1. Xarakterlararo bogʻliqlik (A.Chexov va A.Qahhor hikoyalarida).

2. Psixologik bogʻliqlik (kinoyaviy-parodik yoʻsinda, hajv va tanqid ostiga olinishi).

Mazkur jihat hikoyadagi yozuvchi tasvirlagan odamlarning ijtimoiy-ruhiy ahvoli, ularni shu koʻyga tushirgan amaldorlar, boylar va arboblardir, shuningdek, oʻz manfaati yoʻlida har qanday razillik, pastkashlikdan ham qaytmaydigan obrazlarning tipik koʻrinishi. Unda yozuvchi jamiyatni isloh qiluvchi kuchlarning oʻzlari (islopga) muhtojligini idrok etishga yoʻnaltiriladi. Jamiyat vakillari oddiy ishchilar, dehqonlar, quruvchilar, oʻqituvchilar va ularga yoʻl koʻrsatuvchi maishiy hayot tarzidan boshqani bilmaydigan korchalonlardir.

Bunday vaziyatda inson psixikasini chuqur oʻrganish, yozuvchi hikoyaga olib kirgan katta hayot sahnasidan bir parchani koʻrsatish mahorati – badiiy uslubda jilvalanadi. “Bemor” nomli hikoyasini olib koʻraylik:

“Sotiboldining xotini ogʻrib qoldi. Sotiboldi kasalni oʻqitdi – boʻlmadi, tabibga koʻrsatdi. Tabib qon oldi. Betobning koʻzi tinib, boshi aylanadigan boʻlib qoldi. Baxshi oʻqidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq soʻyib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan boʻladi. Bunday vaqtlarda yoʻgʻon choʻziladi, ingichka uziladi”²³.

Hikoyaning ekspozitsiyasida Sotiboldining ilmsizligi va uning shoshma shosharligi tanqidiy idrok etilmoqda. Bitta bemor ayolini shuncha joyga sudrashi, atigi qizalogʻining onasi haqida qilgan duolarining ijobat boʻlishiga umid bogʻlab battar kasalni kuchayishiga olib kelishi esa oʻquvchida Sotiboldiga nisbatan baʼzan nafrat, baʼzan achinish hissini uygʻotadi. Oʻylab koʻring: hikoyada yozuvchi nima demoqchi? Zamon va makonda kechayotgan hayotiy haqiqatlarni idroklar ekan, bemorning ahvol-ruhiyasidagi uzil-kesil oʻzgarishlarni boricha tasvirlaydi. Mana shu jihatlar yozuvchining butun ijodiy konsepsiyasini yaqqol namoyon qilib turibdi. Bu holat Chexovning “Tuhmat” nomli hikoyasida ham baʼzi oʻxshatishlarni istisno qilmaganda seziladi. Har ikkala yozuvchining poetik mahorati va hayot haqiqatini kuchli dramatik kartinalarda namoyon qila olish yoʻsini yuqoridagi mulohazalarimizni tasdiqlaydi.

Bobning uchinchi fasli **“Zamon talqini va xarakter uygʻunligi”** deb nomlangan. Badiiy asar (hikoya)ning yaratilgan davri bilan yozuvchi toʻplagan material orasida jiddiy tafovut mavjud. Chunki hikoya qilinayotgan obyekt (hayot) bilan predmet (xarakter, inson, shaxs) orasida muayyan oʻzgarishlar boʻlishi tabiiy.

XX asr boshlariga qadar L.Tolstoy, F.Dostoevskiy, A.Chexov, I.Turgenev singari yozuvchilar oʻsha halokatli siyosatni teran bilardi. A.Qahhor oʻnlab hikoyalarini, Gʻ.Gʻulom qissa va poemalarini yozib qoldirdi. A.Qahhorning bir-biridan ham mavzu, ham mazmun, gʻoyaviylik jihatidan farqlanuvchi hikoyalari bugungi zamon oʻquvchisi uchun ham muhim manba boʻlib xizmat qilmoqda. “Oʻgʻri” hikoyasini olib koʻraylik. Hikoyadagi asl gʻoya – davr manzarasi, undagi

²³ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-qahhor/abdulla-qahhor-toyda-aza-hikoya/>

zamon kayfiyatini boricha ochib berish masalasi turadi. Savol tug‘iladi: o‘g‘ri kim aslida? G‘.G‘ulomning shu mavzuga yaqin “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasidagi avtobiografik xarakterdagi asarlar shular jumlasidandir. Rus munaqqidi I.V.Straxov tomonidan ajratib ko‘rsatilgan bu mulohazalar o‘zbek va rus hikoyachiligidagi syujet va kompozitsion butunlik borasidagi mulohazalarimizni to‘ldirishga xizmat qiladi: “Psixologik tahlilning asosiy formalarini xarakterlar tasvirining “ichki” – harakatdagi shaxslarning ichki dunyosini ularning ichki nutqlari, xotira obrazlari va tasavvurlari ko‘magida badiiy ifodalash; “tashqi” – yozuvchining nutqni, nutqiy o‘zini tutishning ifodaviy xususiyatlarini, mimika va psixikaning boshqa tashqi ko‘rinishlarini ruhiy tahlil qilishi kabilarga ajratish mumkin”²⁴. Haqiqatdan ham, A.Qahhor badiiy izlanishlarida shu xildagi masalalar jiddiy ishlov berilgan. “O‘g‘ri” hikoyasida yuqoridagi ruhiy tahlilning ichki va tashqi formalari ziddiyatga kirishadi. Jamiyatning tanazzuli, eshon, mahalla raisi va shunga o‘xshagan amaldorlarning o‘zaro til biriktirib, oddiy xalqning tipik bir vakilining ayanchli taqdirini ifodalab berishida katta umuminsoniy masalalarni ko‘ramiz. Demak, jamiyat o‘g‘rilarning homiysi, ular o‘zaro bir-birini qo‘llab-quvvatlovchi sifatida namoyon bo‘ladi. Hikoyadagi keskin nutqiy muloqot zamon va xarakter uyg‘unligini taqozo etadi. Mazkur hikoyalar zamonning og‘ir yukini ortgan oddiy qishloq mehnatkashlarining dard-u tashvishlarini, ularga bosh bo‘layotgan amaldorlar xarakterini ochib berishga qaratilar ekan, tanqidiy realizmning eng yuksak namunasi ekanligi ayonlashadi.

“XX asrning boshidan oxiriga qadar maydonga kelgan va “oyoqdan qolgan” o‘nlab ijodiy oqim-u metodlarning hech biri inson qalbini sog‘lom mantiq asosida tadqiq etishda tanqidiy realizm darajasiga yetaklay olmadi. Bir olma kurtagi gullagani, so‘ng g‘o‘raga aylangani, yetilgani, pishib shiraga to‘lgani va bundan o‘tgach chirib aynigani kabi, badiiy adabiyot sohasida ijodiy metodlarning eng yuqori nuqtasi tanqidiy realizm bo‘lganga o‘xshaydi. Undan keyin yuzaga chiqqan boshqa aksar oqimlar esa hayotni fokusi buzilgan durbin orqali ko‘rishday taassurot qoldiradi. Bu tabiiy – har qanday voqelikning, jumladan, ijtimoiy hayotning ham, paydo bo‘lish, o‘sib kamolga yetish, vaqti kelib tanazzul davri bo‘ladi”²⁵. Binobarin, tanqidiy realizm – davr muhit hayotini teran idroklaydi. Bu metod vakillari shiddatli va keskin fikr-mulohazalari bilan o‘sha davr odamlariga ko‘zgu tutadi. Kim va qanday ekanligini yaxshiroq anglab olishlari uchun ham bu kabi asarlar o‘zligini, qadriyatlarini, nasl-nasabini yaxshi idroklay boradi.

A.Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasiga e‘tibor qaratamiz:

“Kampir tong qorong‘isida xamir qilgani turib ho‘kizidan xabar oldi. O!.. Ho‘kiz yo‘q, og‘il ko‘cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin. Bir qop somon, o‘n-o‘n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho‘kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo‘yish kerak bo‘ladi.

Odamlar dod ovozigaga o‘rganib qolgan: bironvi eri uradi, bironving uyi xatga tushadi... Ammo kampirning dodiga odam tez to‘plandi. Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og‘il eshigi yonida turib dag‘-dag‘ titraydi, tizzalari

²⁴ Страхов И.В. Психологический анализ в литературном творчестве: пособ. для студ. /В 5 ч./ - Саратов: Изд. Саратовского университета, 1973. –Ч. 1. – С. 14.

²⁵ Исомиддинов З. Икки аёл. Ўзбек адабий танқиди. –Т., “Турон-икбол”. 2011. –Б.379.

*bukilib-bukilib ketadi; ko'zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi. Xotinlar o'g'rini qarg'aydi, it huradi, tovuqlar qaqag'laydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga aql ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi*²⁶.

Mana shu qisqa lavhada A.Qahhor mahorati yorqin namoyon bo'ladi. Hikoyada matniga yot birorta tasvir uchramaydi. Negaki, hikoya xuddi Chexov uslubiga xos aniq, qisqa va faktlar negizida yuzaga chiqadi. Burunsiz ellikboshining xarakteri ikki jumla bilan ochib beriladi. Og'ildagi ustun va ko'cha tarafdagi teshilgan joyning o'zidan ham bilish mumkinki, ellikboshining qanday xislatli odam ekanligini ko'rsatmoqda. Qobil boboga umid berib, odamlar uy-uylariga tarqalishi haqiqatdan chol-kampirni yupatishdan boshqaga yaramaydi. Yozuvchi tesha tegmagan orginal ibora va maqollarni o'z nutqi orqali matn syujetiga singdirib yuboradiki, o'sha manzarada nima demoqchiligini to'laqonli his etish mumkin. Sodda o'zbek xalqining boshiga tushgan kulfat butun qishloq ahlida yashin tezligiday tarqaydi. Bular o'sha zamon va davr kishilari ruhiyatida muhtoj oilalar turmushida o'kinch va alam, nadomatning bolalashiga olib keladi. Yozuvchi zamon va davr manzarasini o'sha qadim makon (ittifoq) bag'rida tasvirlar ekan, tanqidiy realizm bilan o'sha manfur siyosatga ham o'ziga xos ramziy baho ham berib o'tmoqda.

XULOSA

Har qanday badiiy nasr takomilida an'ana va milliy rivojlanishning qat'iy tizimi bo'ladiki, bu jarayon xalqlarning uzoq yillik ijodiy evolyutsiyasida ham o'z aksini topadi. Biz yuqoridagi nazariy-ilmiiy tahlil talqinlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosaga keldik:

1. Badiiy matnning taraqqiyoti shuni ko'rsatmoqdaki, biror adabiy janr o'z-o'zidan rivojlanib, taraqqiy topmaydi. Chunki badiiy asarning syujeti, kompozitsiyasi, yozuvchi uslubi o'sha davr adabiyoti manzaralarida ma'lum ma'noda ilk yuzaga kelgan adabiy streotiplar bilan o'lchanadi. O'zbek va rus hikoyachiligi ham o'z-o'zidan rivoj topmagan. O'zbek hikoyachiligi ikkita yo'nalishda barqarorlashib, milliy nasrning umumiy xususiyatlarini kamol toptirishda katta izlanishlar olib borildi. Hikoya, hikoyat, rivoyat va shu kabi janriy-kompozitsion uyg'unlik kasb etgan adabiy guldastalar XX asrga kelib tom ma'noda o'zining o'zaniga tushdi. Bu izlanishlar XIX asrning ikkinchi yarmida ko'zga tashlanib boshlangan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy jabhadagi yangilanishlar evaziga yuzaga chiqayozdi. Demak, o'zbek hikoyachiligi talqin va tasvir yo'sinida doston va hikoyatlar bag'rida yashab kelayotgan an'anani individual, ya'ni ijtimoiy kayfiyat samarasi o'laroq yangilashga qaratildi. G'arbu Sharq an'analari va qardosh xalqlar folklori, rus adabiyotidagi ko'zga ko'ringan yozuvchilarning asarlari ta'sirida shakl, mazmun va uslubiy jihatdan o'ziga xos xalqani quradi.

2. O'zbek va rus hikoyailik maktablari haqida so'z borganda, eng avvalo, ko'z o'ngimizda A.Chexov, I.Turgenov, V.Rasputin, M.Sholoxov, A.Qodiriy, Cho'lpon, A.Qahhor, G'.G'ulom, Sh.Xolmirzayev kabi yozuvchilar keladi. Bularning poetik

²⁶ Каххор А. Ўғри. <https://ziyouz.uz/uzbek-nasri/abdulla-qahhor/abdulla-qahhor-ogri-hikoya/>

izlanishlari shundan dalolat beradiki, shakl va mazmuniy uyg'unlik, uslubiy o'ziga xoslik, g'oyaviy alohidalik turli xil syujet yo'nalishlarini tartiblashtiradi. A.Chexov va A.Qahhorning badiiy izlanishlaridan farqli o'laroq, M.Sholoxov yoki Sh.Xolmirzayev izlanishlari tubdan farq qiladi. I.Turgenevning tabiat, jamiyat va inson fenomeni bilan bog'liq qator hikoyalari o'zbek adabiyotida o'nlab yozuvchilar izlanishlarida yorqin ranglarda adabiy ta'sir qilgani, o'zbek nasrining yanada taraqqiy etishida turtki bo'lganini e'tirof etish lozim. Mana shu jihatlar har bir adibning ham uslubini, ham shakl borasidagi izlanishlarini, ham g'oyaviy-tematik planda olg'a siljishlarini teranlashtiradi. Ayni shu qirralar mavzu va mohiyatni anglashga keng yo'l ochadi.

3. Dunyoni badiiy idrok etishda – hikoya o'z-o'zidan sahnaviyligi va ixchamligi bilan ajralib turadi. A.Chexovning qator hikoyalari “Xameleon”, “Tuhmat”, “Vanka”, “Uyqu istagi”, A.Qahhorning “O'g'ri”, “Dahshat”, “To'yda aza”, “Anor” kabilar davrning ijtimoiy-psixologik holatni, insonlar ruhiyatidagi o'zgarishlarni, o'z davrida san'at uchun tushov bo'lgan sobiq ittifoq davrining ba'zi “o'yin”larini yodimizga soladi. Mana shu hikoyalarni yozishda yozuvchilar – kinoya, hajv va o'tkir tanqidiy ruh bilan inkishof qilganlar. Bularning barchasi yozuvchi idrokida yangilandi. Qayta tahrir qilindi. Syujet va kompozitsiyani muvofiq ravishda yuzaga chiqishida zamin hozirladi.

4. Hikoyada syujet va kompozitsion yaxlitlik sintezi o'z-o'zidan uyg'unlashadigan hodisa, baholash uchun o'ylab chiqilgan kriteriy emas. Negaki, inson hamisha o'zining yutuq va kamchiliklarini bilmaydi. Yozuvchi o'z-o'zidan mana shu mezonlarni to'laqonli uddalashim mumkin deb, o'ylaganida ham ma'lum ma'noda asarning syujeti yoki kompozitsiyasida bo'shliqlar bo'lishi tabiiydir. Hayot hodisasini poetik yaxlit tizim shakliga keltirish uchun mahorat va dunyo adabiyoti tajribasidan maksimal darajada foydalanish ham muhimdir. Ayni bir vaqtda syujet qiziqarli chiqishi uchun, asarning umrboqiyiligini ta'minlashda olam va odam muammosini o'zini qilib, shu tarzda inkishof qilish ham muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

5. Shuningdek, rus yozuvchilaridan I.Turgenev va A.Chexov poetikasida so'zni vaziyatga, vaziyatni hodisaga, hodisani poetik olam asroriga aylantirish mahorati juda kuchli bo'lgan. Bu jihatlar o'zbek adabiyotida A.Qodiriy, A.Qahhor va G'.G'ulom, qolaversa 60-yillarda Sh.Xolmirzayevlar avlodida yaqqol namoyon bo'ladi. Idrok qilinayotgan hayot metaforfozasi badiiylik modusi shartlariga to'laqonli javob bersa, o'z-o'zidan kompozitsion muvofiqlikni ham yuzaga chiqarib boradi. Ayniqsa, Sh.Xolmirzayev uslubida xuddi ingliz adibi J.London va o'zbek adibi O'.Hoshimovlar poetikasida mavjuddir. Bularning har biri bir olam tarzida ish ko'radi. Natijada hikoya qilinayotgan voqelik – hayot kartinasini tasvirlash borasida juda chuqur ma'noli talqin birikuvini namoyish qila oladi.

6. Hikoyada qator unsurlar bo'ladi, bularning barchasi poetik yaxlitlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Demak, hikoyaning syujetga oid va kompozitsiyaga oid komponentlarida – matn pozitsiyasi muhim rol o'ynaydi. A.Chexovda o'ta qisqalik va ixchamlik tor tasvir egzistentsiyasini namoyon qiladi. Sh.Xolmirzayevda benihoya katta adabiy tasvir poetikasini tartibli chiqishiga yo'l ochadi. Har ikki holatda ham –

inson psixologiyasini “kashf qilish” manerasi ustuvorlik qiladi. A.Qahhor o‘zining ustozi sifatida qadrlab yashagan A.Chexovga ergashish kuzatilsa, Sh.Xolmirzayev boshqa G‘arb yozuvchilari, M.Sholoxov yoki I.Turgenev kabi tabiat va inson ruhiyatida kechayotgan silsilalarni tasvirlash (peyzaj va portret) yuzaga qabarib chiqadi.

7. Badiiy xronotop o‘zbek va rus hikoyachiligida syujetga daxldor komponentlarni muvofiqlashtiradi. Ayniqsa, idrok qilinayotgan mavjud hayot voqeligi syujetga va kompozitsiyaga o‘tib turish holatlarini ham birlashtirib yagona estetik mezonda uyushadi. Zamon tasvirida makonning, insonning qilmish-qidirmishlari bilan bir qatorda o‘zaniga tushmayotgan hayot formulasi idrok qilinadi. Shuning uchun ham A.Chexov muammoni zamon va makon yelkasiga emas, inson qismatining bir uzvi sifatida baholaydi. A.Qahhor ham ayni shu tarzda poetik matnни yorqin buyuyoqlarda bezashga erishadi. Qaysi bir hikoyanavisni olib kro‘maylik, har birining o‘ziga xos zamonni ifodalash manerasi mavjudligini sezish qiyin emas. Tarixiy shart-sharoit taqozosi bilan kinoya va parodiya zamonning asl qiyofasini: boylar va yo‘qsillar ruhiyatidagi keskinlikni anglashga keng imkon beradi.

8. Har qanday vaziyatda zamonni idroklashda xarakterni qay tariqa yuzaga chiqarish ko‘zda tutiladi. Endi e‘tibor qilinsa, A.Chexov, A.Qahhor yoki Sh.Xolmirzayev izlanishlarida L.Tolstoy va F.Dostoevsiykiydan farq qiladi. Bir davrning umumiy ruhiyatini birlashtirib turgan – ma‘rifatparvarlik davri esa, yuqorida nomlari keltirilgan yozuvchilardan o‘zlarining uslubiy-shakliy izlanishlari bilan keskin farq qilardi. Bular o‘ziga xos bir olam. Shunday ekan, hikoya qilinayotgan voqelik – xarakterlar yaratishda ham tubdan farq qilardi. Chunki A.Chexov va A.Qahhor xarakter yaratishda muammo, muammoga yechim va uni yuzaga keltirgan vaziyatni birinchi planga qo‘yardi. Shu zaylda tasvirdagi aniqlik va ixchamlik o‘zaro o‘xshashlikni paydo bo‘lishiga olib kelgandi. Sh.Xolmirzayev va boshqa yozuvchilar tabiatning bir uzvi sifatida insonlararo munosabat negizida jamiyatga baho berishga kirishiladi. Xarakter shu tariqa zamonning belgilarini o‘zida tashuvchi va o‘zgartiruvchisi sifatida namoyon bo‘lishi ayon edi.

Umuman olganda, o‘zbek va rus hikoyachiligida syujet va kompozitsion yaxlitlik sintezi har bir davr adabiy manzarasini aniqlashda qo‘l keladi. Hikoya va hikoya qilinayotgan vaziyat, tipik shart-sharoit, insoniy munosabatlar tig‘izlashuvini hiyla bo‘rttirib, ba‘zan ixcham tasvirlarda namyon bo‘lishini ham keltirib chiqargan. Jamiyat hayotining ma‘lum bir bo‘lagini ifodalash va uni mahorat bilan uddasidan chiqish yozuvchining janrlar tirixi va hayot muammolarini anglashi, anglatish uslubi bilan bog‘liq ekanligi sir emas. Mana shu jihatdan olib qaralganda o‘zbek va rus hikoyachiligida syujetlararo mutanosiblik holatlari bo‘lishi tabiiydir. Zero, kuzatuv va tahlillar natijasi shunday xulosaga kelishga zamin hozirlaydi. Inson qismatining ma‘lum bir davrini, yashash makonini, zamonini o‘ziga xos tarzda idroklash esa har qanday san‘atkorning olam va odam haqidagi o‘ziga xos izlanishlari samarasida yuzaga kelishi shubhasizdir.

**УЧЕНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ УРГЕНЧСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ЧИРЧИКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

РАЖАБОВА ИРИНА ТАХИРОВНА

**СИНТЕЗ СЮЖЕТНО-КОМПОЗИЦИОННОЙ ЦЕЛОСТНОСТИ В
УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ПОВЕСТВОВАНИИ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное
языкознание и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Урганч-2023

Тема докторской диссертации (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2023.2.PhD/Fil3553

Диссертация выполнена в Чирчикском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Ученого совета (www.fil-ik.urdu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Ботирова Шахло Исамиддиновна
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты: Гайлиева Огулай Курбанмурадovна
доктор филологических наук, доцент

Джумабаева Жамила Шариповна
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация: Нукусский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 при Ургенчском государственном университете «31» 10 2023 г. в 14:00 часов. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Олимжона, дом 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00, e-mail: www.fil-ik.urdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (зарегистрирован под номером № 409 Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Олимжона, дом 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00, e-mail: www.fil-ik.urdu.uz).

Автореферат диссертации разослан «15» 10 2023 года.

(протокол реестра № 12 от 19.10 2023 года)



З.Д.Дусимов
председатель Ученого совета по
присуждению ученых степеней, доктор
филологических наук, профессор

С.С.Атажанов
ученый секретарь Ученого совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.н. (PhD)

А.Д.Уразбоев
председатель научного семинара при
Ученом совете по присуждению ученых
степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сущность исследований по поэтике рассказа и тенденциям ее развития сам жанр отличается своей склонностью к постоянному изменению и развитию. Определенные повороты в структуре рассказа, раскрывающие понятия человеческой судьбы, при описании узкой и важной стороны жизни, позволяют понять картину глобального мира. Определение этапов и факторов возникновения жанрово-композиционной целостности в архитектонике рассказа, теоретико-научная оценка концепции рассказа в европейской и русской литературе являются одними из важных вопросов современного литературоведения.

Неотъемлемой частью процесса глобализации в мире является модификация формальных и стилистических изысканий, линии которых, выделяясь в композиции рассказа, создают многообразие интерпретаций, а принципы, в свою очередь, отражаются в художественном произведении. Качественные изменения в европейском и русском повествовании оказывают серьезное влияние на поэтическую конструкцию. Корни рассказов в романном духе, повествование и его отличные от рассказа характеристики требуют важности всесторонней оценки особенностей деления на части и отрывки начиная с древнегреческой истории и эпоса. Приходит понимание необходимости сопоставления философских и психологических основ жанра рассказа, индивидуальности героев, формирующейся в эстетическом вкусе и творческом мировоззрении. В данном сопоставлении раскрывается глубокое исследование принципов изображения, возникших в школе европейского и мирового повествования. Только эти аспекты позволяют определить качественные изменения в структуре формы и сюжетной конструкции жанра.

Не вызывает сомнения то, что нынешнее состояние новой узбекской литературы и традиции повествования восходят к глубокой древности. Определенный вес приобретают литературно-художественные связи, принципы синтеза и модификации ведущих представителей узбекской и русской школ повествования. Понимание этих аспектов позволяет глубже вникнуть в суть исследуемого вопроса.

Поэтический размах и самостоятельность выражения, как правило, достигает своего апогея в сюжете и композиции и подобная кульминация отражается как продукт концепции писателя через стиль и художественную форму. Ибо, "...мы не вправе забывать, что внимание к литературе, искусству и культуре – это, прежде всего, внимание к нашему народу, внимание к нашему будущему, а как сказал наш великий поэт Чулпон, если живы литература и культура, может жить и нация."³

Следовательно, трансформация социума и изменения текущего периода, подготавливают почву для определения многообразия интерпретации и вывода

³ Мирзиёев Ш. Развитие литературы и искусства, культуры – прочный фундамент возвышения духовного мира нашего народа // Народное слово. - Ташкент, 2017. - 4 августа..

из нее определенных заключений с целью неоднозначной трактовки критерия рассказа. Проблема литературного влияния и творческого своеобразия в узбекском и русском повествовании открывает путь к пониманию феномена творца и границ мышления. Таким образом, выбранная нами тема определяет актуальность проблемы при сравнительном исследовании синтеза сюжетно-композиционной целостности

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит исполнению задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан ПУ-№4947 от 17 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Указе ПУ-№4958 от 16 февраля 2017 г. «О дальнейшем совершенствовании системы образования после высшего образования», Указе ПУ-№5847 от 8 октября 2019 г. «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистана до 2030 года», Постановлении ПП-№3271 от 13 сентября 2017 года «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению и развитию книжного чтения и культуры чтения», Постановлении ПП-№3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в комплексных реформах, реализуемых в стране», в Постановлении ЗРУ-576 от 29 октября 2019 года «О науке и научной деятельности» и других нормативно-правовых актах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности темы. С древних времен в мировой литературе проводились большие и малые исследования генезиса жанра рассказа и факторов его формирования. Труд Аристотеля «Поэтика» является наглядным подтверждением нашего мнения, целью которого является определение специфических для эпоса аспектов жанрового термина. В.Г.Белинский, А.А.Потебня, Д.Н.Овсянко-Куликовский, А.Г.Грофье, Л.С.Виготский, М.М.Бахтин проводили психоаналитические; В.Шкловский, В.В.Виноградов, В.М.Жирмунский, Ю.Н.Тинянов, Б.В.Томашевский, Г.О.Винокур, Клод Леви-Стросс, Л.С.Выготский, Р.Барт, Ю.Лотман, Д.С.Лихачев, Ф.Шлейермахер, В.Дильтей, М.Хайдеггер, Г.Г.Гадамер – определенные большие-малые исследования.⁴ В их теоретических изысканиях эстетические аспекты жанра

